

## XORIJIY ILMIIY ADABIYOTLARDA O‘ZBEKISTON NOMODDIY MADANIY MEROSINING KONSEPTUAL TALQINI

**Bobur Ismoil o‘g‘li Avloqulov,**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktorant*

*e-mail: [boburavloqulov2@gmail.com](mailto:boburavloqulov2@gmail.com)*

*Orcid: 0009-0009-0809-0120*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xorijiy ilmiy adabiyotlarda O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosining konseptual talqini masalasi tahlil qilinadi. Maqolada nomoddiy madaniy merosning etnomusiqashunoslik, ijroga asoslangan, YUNESKOga oid institutsional hamda iqtisodiy-resurs yondashuvlar doirasida talqin qilinishi ko‘rib chiqiladi. Xususan, maqom, baxshichilik, urf-odatlar va hunarmandchilik kabi madaniy amaliyotlarning “tirik meros” sifatida ijro jarayonida shakllanishi va avloddan avlodga uzatilishi asosiy ilmiy konsept sifatida tahlil etiladi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda merosning global madaniy siyosat, iqtisodiy qiymat va transmilliy jarayonlar bilan bog‘liqligi ham muhim o‘rin egallashi ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosining xalqaro ilmiy diskursda ko‘p qatlamli va dinamik tizim sifatida talqin qilinishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** nomoddiy madaniy meros, YUNESKO, madaniy meros tadqiqotlari, etnomusiqashunoslik, ijroga asoslangan yondashuv, performativ yondashuv, global madaniy siyosat, madaniy resurs, diaspora, transmilliy madaniyat.

**Abstract.** This article analyzes the issue of conceptual interpretation of the intangible cultural heritage of Uzbekistan in foreign scientific literature. The article considers the interpretation of intangible cultural heritage within the framework of ethnomusicology, performance-based, UNESCO-related institutional and economic-resource approaches. In particular, the formation of cultural practices such as maqom, bakhshi, traditions and crafts as a “living heritage” in the process of performance and transmission from generation to generation is analyzed as a key scientific concept. Foreign scientific literature also emphasizes the connection of heritage with global cultural politics, economic value and transnational processes. The results of the study show that the intangible cultural heritage of Uzbekistan is interpreted in the international scientific discourse as a multilayered and dynamic system.

**Keywords:** intangible cultural heritage, UNESCO, cultural heritage studies, ethnomusicology, performance-based approach, performative approach, global cultural policy, cultural resource, diaspora, transnational culture.

**Аннотация.** В данной статье анализируется проблема концептуальной интерпретации нематериального культурного наследия Узбекистана в зарубежной научной литературе. Рассматривается интерпретация нематериального культурного наследия в рамках этномузыкологического, исполнительского, институционального и экономико-ресурсного подходов, связанных с ЮНЕСКО. В частности, анализируется формирование культурных практик, таких как маком, бахши, традиции и ремесла, как «живого наследия» в процессе исполнения и передачи из поколения в поколение, как ключевое научное понятие. Зарубежная научная литература также подчеркивает связь наследия с глобальной культурной политикой, экономической ценностью и транснациональными процессами. Результаты исследования показывают, что нематериальное культурное наследие Узбекистана интерпретируется в международном научном дискурсе как многоуровневая и динамичная система.

**Ключевые слова:** нематериальное культурное наследие, ЮНЕСКО, исследования культурного наследия, этномузыкология, подход, основанный на исполнении, перформативный подход, глобальная культурная политика, культурные ресурсы, diaspora, транснациональная культура.

**Kirish.** Nomoddiy madaniy meros tushunchasi zamonaviy gumanitar tadqiqotlar doirasida madaniyatni anglashning muhim kategoriyalaridan biri sifatida shakllandi. Xususan, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalq ogʻzaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar, ijrochilik sanʼati, anʼanaviy bilimlar va hunarmandchilik kabi hodisalarni faqat folklor yoki etnografik “namuna” sifatida emas, balki jamiyatning tarixiy xotirasi va milliy oʻzligini belgilovchi “tirik madaniyat” koʻrinishida talqin qilish tendensiyasi kuchaydi. Bu jarayon ayniqsa Gʻarb ilmiy muhitida antropologik yondashuvlarning kengayishi, madaniy tadqiqotlar va merosshunoslik yoʻnalishlarining rivoji bilan bevosita bogʻliqdir.

Oʻzbekiston mustaqillikka erishganidan soʻng milliy oʻzlikni anglash, tarixiy-madaniy qadriyatlarni tiklash va asrab-avaylash masalalari davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Shu jarayonda nomoddiy madaniy merosni oʻrganish, uni tizimli ravishda hujjatlashtirish hamda xalqaro miqyosda eʼtirof ettirishga qaratilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar sezilarli darajada faollashdi. Xususan, mazkur meros obyektlarini YUNESKOning Rerezentativ roʻyxatlariga kiritish orqali ularning global madaniy makondagi oʻrni va ahamiyati yanada mustahkamlandi. Natijada, nomoddiy madaniy merosni nafaqat milliy, balki xalqaro ilmiy diskurs doirasida oʻrganishga boʻlgan ehtiyoj ortib bormoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Hozirgi kunda Oʻzbekiston nomoddiy madaniy merosini asrab-avaylash, uni ilmiy asosda tadqiq etish, zamonaviy sharoitlarda rivojlantirish hamda yosh avlodga yetkazish dolzarb ijtimoiy-madaniy va ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqola Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M. Mirziyoyevning 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-sonli “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy oʻrganish va targʻib qilishni rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi [1] qarori, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-aprelda 256-sonli “Nomoddiy madaniy meros namunalarini roʻyxatga kiritish yoki undan chiqarish bilan bogʻliq davlat xizmatlarini koʻrsatishning maʼmuriy reglamentini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi [2] qarori hamda sohaga oid boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlar mazkur yoʻnalishning huquqiy asoslarini mustahkamlaydi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqola belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda Oʻzbekiston nomoddiy madaniy merosining aks etishi, uni turli nazariy yondashuvlar asosida talqin etilishi va konseptual jihatdan tahlil qilinishi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvlar orqali mazkur merosning semantik, ijtimoiy va madaniy funksiyalari chuqurroq ochib berilib, uning jahon madaniy merosi tizimidagi oʻrni aniqlashtiriladi. Shu bilan birga, xorijiy tadqiqotlar tahlili milliy ilmiy qarashlarni boyitish, mavjud nazariy asoslarni takomillashtirish hamda yangi ilmiy xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda xorijiy ilmiy adabiyotlarda Oʻzbekiston nomoddiy madaniy merosining konseptual talqinini oʻrganish uchun tarixiy-

qiyosiy, tarixiy-tipologik va xronologik usullardan foydalanildi. Shuningdek, konseptual, diskursiv hamda komparativ tahlil usullari orqali mazkur tushunchaning mazmun-mohiyati, turli ilmiy yondashuvlardagi talqini va o'ziga xos jihatlari tahlil qilindi.

**Tahlillar va natijalar.** Nomoddiy madaniy meros O'zbekiston madaniy hayotida turli shakllarda namoyon bo'ladi: xalq og'zaki ijodi, ijro san'atlari, marosim bayramlar, tabiat va koinot bilan bog'liq bilim amaliyotlar, an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalardir. Bu elementlar milliy o'ziga xoslik va tarixiy xotirani saqlashda muhim rol o'ynaydi. Xorijiy olimlarning tadqiqotlari esa ushbu merosni jahon miqyosida qanday talqin qilish mumkinligini ko'rsatadi.

Dastlab, xalq madaniyati va an'anaviy ijod namunalari G'arb ilmiy adabiyotlarida "xalq ijodiyoti", "an'anaviy madaniyat" yoki "etnografik ma'lumotlar" kabi tushunchalar orqali izohlangan. Bunday yondashuvda madaniy hodisalar ko'proq matn sifatida qayd etilgan: doston, qo'shiq, rivoyat, maqol, marosim matni yoki tasviriy tavsiflar. Natijada meros elementlari "muzeylashtiriladigan" yoki "arxivlashtiriladigan" obyekt sifatida ko'rilgan. Biroq XX asr oxiriga kelib, bu yondashuv yetarli emasligi, chunki nomoddiy merosning asosiy mohiyati uning ijro jarayonida, ijtimoiy muhitda va hamjamiyatning amaliy faoliyatida namoyon bo'lishi ta'kidlandi. Shunday qilib, nomoddiy madaniy merosni o'rganishda "matn" markazidan "ijro", "kontekst" va "hamjamiyat" markaziga o'tish yuz berdi.

Mazkur metodologik yondashuvning nazariy asoslaridan biri Barbara Kirshenblatt-Gimblettning ilmiy qarashlarida o'z ifodasini topadi. U o'zining "Intangible Heritage as Metacultural Production" [3] nomli maqolasida nomoddiy madaniy merosni an'anaviy "saqlanib qolgan madaniy qolip" sifatida emas, balki zamonaviy davrda qayta ishlab chiqiladigan va madaniy siyosat mexanizmlari orqali shakllantiriladigan dinamik jarayon sifatida talqin etadi. Olimaning fikricha, nomoddiy meros ko'pincha "metamadaniy ishlab chiqarish" natijasi bo'lib, unda madaniy elementlar zamonaviy ehtiyojlar asosida tanlanadi, qayta tizimlashtiriladi va rasmiylashtirilgan shaklda taqdim etiladi. Ushbu yondashuv nomoddiy madaniy merosning tarixiy uzluksizligini inkor etmagan holda, uni muhofaza qilish, ro'yxatga olish va targ'ib etish jarayonlarining o'zi ham madaniy siyosatning faol konstruktiv mexanizmi ekanini ko'rsatadi. Shu bois, xorijiy ilmiy adabiyotlarda nomoddiy madaniy meros konsepsiyasining shakllanishi nafaqat ilmiy nazariy ehtiyojlar, balki global madaniy jarayonlar va institutsional amaliyotlar bilan ham bevosita bog'liqdir.

Nomoddiy madaniy meros tushunchasining xalqaro miqyosda mustahkamlanishi YUNESKO tomonidan 2003-yilda qabul qilingan "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi Konvensiya bilan bog'liq [4]. Ushbu hujjat nomoddiy madaniy merosni hamjamiyatlar, guruhlar va ayrim hollarda shaxslar tomonidan o'z madaniy merosi sifatida tan olinadigan amaliyotlar, bilimlar va ko'nikmalar majmuasi sifatida belgilaydi. Konvensiyada nomoddiy madaniy merosning asosiy turlari ham aniq

tasniflangan bo‘lib, og‘zaki an‘analar, ijrochilik san‘ati, urf-odatlar va marosimlar, tabiat va koinotga oid bilimlar hamda an‘anaviy hunarmandchilik shu jumlagi kiradi. Bu tasnif, bir tomondan, nomoddiy madaniy merosni o‘rganishning ilmiy yo‘nalishlarini belgilab bergan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, merosni saqlashning amaliy mexanizmlarini – inventarizatsiya, hujjatlashtirish, uzatish tizimlarini qo‘llab-quvvatlash kabi choralarni metodologik asosga qo‘ydi.

Shu bilan birga, YUNESKO konsepsiyasi nomoddiy madaniy merosni “tirik meros” sifatida talqin qilib, uning muhofazasi faqat qayd etish yoki arxivlash bilan cheklanmasligini ta‘kidlaydi. Aksincha, merosni saqlash uning yashash muhitini, uzatilish mexanizmlarini va hamjamiyatning ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi (YUNESKO, 2003). Bu yondashuv zamonaviy merosshunoslikda “hamjamiyatga asoslangan muhofaza” konsepsiyasi sifatida shakllandi. Aynan shu nuqtada xorij ilmiy adabiyotlarida nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish jarayonining siyosiy va ijtimoiy mazmuni ham chuqur tahlil qilina boshladi.

Laurajane Smithning meros nazariyasiga oid tadqiqotlari bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. Smith merosni shunchaki tarixiy obyektlar yoki an‘analar yig‘indisi sifatida emas, balki ijtimoiy amaliyot sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, meros jamiyat tomonidan “foydalaniladigan” va muayyan ijtimoiy maqsadlarga xizmat qiladigan jarayondir [5]. Bu yondashuv nomoddiy madaniy merosni o‘rganishda konseptual jihatdan muhimdir, chunki u merosning jamiyatdagi funksiyasini, identitet yaratishdagi rolini hamda siyosiy legitimatsiya vositasi sifatidagi ahamiyatini tushuntiradi. Ayniqsa post-sovet hududlarida, jumladan O‘zbekistonda ham, nomoddiy madaniy meros ko‘pincha milliy o‘zlikni mustahkamlash va tarixiy xotirani tiklash jarayonlari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Nomoddiy madaniy merosning ro‘yxatga olinishi va xalqaro darajada tan olinishi masalasi Valdimar Hafstein tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Hafstein nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishda inventarizatsiya va ro‘yxatlarning o‘rni haqida fikr yuritib, ro‘yxatga olish jarayoni merosni saqlash bilan birga uni rasmiylashtirish va standartlashtirishga ham olib kelishini ta‘kidlaydi[6]. Bu jihat post-sovet mamlakatlaridagi nomoddiy madaniy meros siyosatini tahlil qilishda ayniqsa muhimdir, chunki ro‘yxatga olish jarayonida “qaysi meros tanlanadi” va “qaysi meros chetda qoladi” degan savollar yuzaga keladi. Demak, nomoddiy madaniy meros konsepsiyasi chet el adabiyotlarida faqat madaniy hodisa sifatida emas, balki siyosiy va ijtimoiy mexanizm sifatida ham tahlil qilinadi.

G‘arb ilmiy adabiyotlarida O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi ko‘pincha etnomuzikologiya va madaniy antropologiya doirasida talqin qilinadi. Bu borada Theodore Levinning “The Hundred Thousand Fools of God: Musical Travels in Central Asia (and Queens, New York)” [7] asari muhim manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur

asarda Theodore Levin Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududidagi musiqiy an'analarni dala tadqiqotlari asosida o'rganadi.

Levin musiqani faqat estetik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar, madaniy xotira va identitetni shakllantiruvchi muhim omil sifatida talqin qiladi. Shuningdek, u an'anaviy musiqiy amaliyotlarning tarixiy sharoitlar ta'sirida o'zgarishini, jumladan sovet davri kontekstidagi transformatsiyalarni va mustaqillikdan keyingi madaniy qayta tiklanish jarayonlarini ilmiy kuzatuvlar asosida yoritadi. Ushbu yondashuv nomoddiy madaniy merosni faqat badiiy tizim sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida ham tahlil qilish imkonini beradi.

Ushbu yondashuv nomoddiy madaniy merosni "tirik" va ijro jarayonida mavjud bo'ladigan madaniy amaliyot sifatida tushunishga yaqinlashadi hamda YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan nomoddiy madaniy meros konsepsiyasidagi kontekstual va amaliy yondashuvlar bilan ma'lum darajada uyg'unlik kasb etadi. Xususan, ijrochilar, ustoz-shogird an'anasi, marosim va diniy kontekstlar, shuningdek, auditoriya bilan o'zaro aloqalar musiqiy an'anani yagona badiiy "namuna" emas, balki ijtimoiy-madaniy tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, asarda "Queens, New York" konteksti orqali Markaziy Osiyo musiqiy an'alarining migratsiya va diaspora sharoitida ham davom etishi va qayta shakllanishi masalasi yoritiladi. Bu esa nomoddiy madaniy merosning globalizatsiya sharoitida transmilliy harakatlanishi, ya'ni turli ijtimoiy va madaniy muhitlarda moslashuvi hamda yangi shakllarda yashab qolishi muammosini ilmiy muhokamaga olib chiqadi.

Shu jarayonda, Regina Bendix merosni nafaqat madaniy identitetni shakllantiruvchi omil, balki zamonaviy global jarayonlarda siyosiy va iqtisodiy qiymat kasb etuvchi ijtimoiy resurs sifatida ham tahlil qiladi.[8] Uning yondashuvida merosning institutsionalizatsiyasi va uning xalqaro miqyosda qiymatga aylanish jarayonlari muhim o'rin tutadi. Ushbu nazariy qarashlar asosida O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini, jumladan hunarmandchilik, maqom san'ati va urf-odatlarini faqat tarixiy-madaniy hodisa sifatida emas, balki global madaniy siyosat va xalqaro tan olinuv jarayonlari bilan bog'liq ijtimoiy resurs sifatida tahlil qilish mumkin.

Demak, xorij adabiyotlarida O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi nafaqat folklor va etnografik material sifatida, balki jamiyatning ma'naviy tajribasi, tarixiy xotirasi va global jarayonlar ta'sirida qayta shakllanayotgan madaniy tizim sifatida talqin qilinmoqda. Bu esa O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini o'rganishda konseptual yondashuvlarni kuchaytirish, xalqaro ilmiy adabiyotlarda shakllangan metodologik qarashlarni mahalliy tajriba bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Xorijiy ilmiy adabiyotlarda O'zbekiston nomoddiy madaniy merosining konseptual talqini masalasi tahlil qilindi. Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy ilmiy maktablarda nomoddiy madaniy meros (NMM) o'zgarmas, muzeylashtirilgan

yoki faqat tarixiy obyekt sifatida emas, balki doimiy ravishda qayta ishlab chiqiladigan, ijtimoiy munosabatlar va ijro amaliyoti orqali yashaydigan dinamik madaniy tizim sifatida qaraladi. Shu jihatdan O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi ham global ilmiy diskursda “tirik meros”, “ijro amaliyoti” va “ijtimoiy uzatish tizimi” sifatida talqin etiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, xorijiy adabiyotlarda O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosini o‘rganish bir necha asosiy konseptual yo‘nalishlar asosida amalga oshiriladi. Birinchi yo‘nalish etnomuzikologik yondashuv bo‘lib, u asosan musiqiy ijro, maqom san’ati va baxshichilik kabi an’analarini ijro jarayonida shakllanadigan madaniy amaliyot sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvda musiqa va ijro faqat estetik hodisa emas, balki jamiyatning tarixiy xotirasi va ma’naviy tajribasini ifodalovchi muhim madaniy mexanizm sifatida ko‘riladi.

Ikkinchi yo‘nalish ijroga asoslangan yondashuv bo‘lib, unda nomoddiy madaniy merosning asosiy mohiyati ijro jarayoni bilan bog‘liq holda izohlanadi. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, madaniy an’analar matn yoki obyekt sifatida emas, balki ijro, amaliyot orqali uzatiladigan jarayon sifatida mavjud bo‘ladi. Bu yondashuv O‘zbekiston madaniy merosini, xususan maqom va baxshichilikni “tirik an’ana” sifatida tushunish imkonini beradi. Shu bilan birga, ustoz-shogird tizimi madaniy bilimning asosiy uzatish mexanizmi sifatida talqin qilinadi.

Uchinchi yo‘nalish YUNESKO va madaniy meros tadqiqotlari yondashuvi bo‘lib, u nomoddiy madaniy merosni institutsional va siyosiy jarayon sifatida tahlil qiladi. Ushbu yondashuvda merosni ro‘yxatga olish, tasniflash va xalqaro tan olish jarayonlari madaniy tanlov, hokimiyat munosabatlari va global madaniy siyosat bilan bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Bu esa O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosining xalqaro maydondagi o‘rni faqat madaniy emas, balki siyosiy-institutsional jarayonlar bilan ham belgilanishini ko‘rsatadi.

To‘rtinchi yo‘nalish iqtisodiy va resurs yondashuvi bo‘lib, unda nomoddiy madaniy meros zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida madaniy resurs sifatida talqin qilinadi. Ushbu konseptual yondashuvga ko‘ra, madaniy meros turizm, madaniy sanoat va xalqaro madaniy almashinuv jarayonlarida iqtisodiy qiymatga ega bo‘lgan obyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston hunarmandchiligi, maqom san’ati va an’anaviy urf-odatlar global madaniy bozorda ham o‘ziga xos “madaniy kapital” sifatida ko‘riladi.

Shuningdek, xorijiy adabiyotlarda O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosining transmilliy va diasporik kontekstda ham o‘rganilishi kuzatiladi. Migratsiya jarayonlari natijasida madaniy an’analar o‘z geografik hududidan tashqarida ham yashashda davom etadi va yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarda qayta shakllanadi. Bu holat nomoddiy madaniy merosning global harakatchanligi va moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, xorijiy ilmiy adabiyotlarda O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bir necha konseptual yondashuvlar orqali tahlil qilinadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-sonli qarori. Lex.uz
2. “Nomoddiy madaniy meros namunalarini ro‘yxatga kiritish yoki undan chiqarish bilan bog‘liq davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-aprelda 256-sonli qarori. Lex.uz
3. Kirshenblatt-Gimblett, B. *Intangible Heritage as Metacultural Production*.// Museum international, LVI, 1-2 / 221-222, p. 52-65, illus. (2004) 52-65-p.
4. [https://ich.unesco.org/doc/src/2003\\_Convention\\_Basic\\_Texts\\_2024\\_version\\_EN.pdf?t=1732024325](https://ich.unesco.org/doc/src/2003_Convention_Basic_Texts_2024_version_EN.pdf?t=1732024325)
5. Smith, L. *Uses of Heritage*, // Routledge, ISBN 9780415318310 (2006)// [https://www.researchgate.net/publication/286919161\\_Uses\\_of\\_Heritage](https://www.researchgate.net/publication/286919161_Uses_of_Heritage)
6. V. Hafstein, *Intangible heritage as a list: from masterpieces to representation*, <https://www.academia.edu> 21- p.
7. T. Levin “The Hundred Thousand Fools of God: Musical Travels in Central Asia (and Queens, New York), Indiana University Press, 1999. - 352 p.
8. R.F.Bendix “Culture and Value: Tourism, Heritage, and Property”, Indiana University Press, 2018. - 290 p.

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934